

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## “SHARQ YULDUZI” JURNALI SAHIFALARIDA XX ASR 60-70-YILLAR ADABIY MUHITINING YORITILISHI

**Tursunoy Jarkinova**

*Alisher Navoiy nomidagi*

*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

[tursunoyjarkinova@gmail.com](mailto:tursunoyjarkinova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada XX asr 60-70-yillardagi madaniy hayotni yoritishda, o‘zbek adabiyotining bosib o‘tayotgan yo‘lini ko‘rsatishda davriy nashrlarning o‘rni naqadar yuksak bo‘lganligi haqida fikr yutilgan. Xususan, “Sharq yulduzi” jurnali sahifalarida berilgan tanqidiy maqolalar, taqrizlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** matbuot, lirik qahramon, poema, qo‘shiqlar, lirika.

Ma’lum davr adabiy muhiti, ijtimoiy hayot haqidagi ma’lumotlar bilan ana shu davrda faoliyat yuritgan adabiy nashrlar, gazeta-jurnallar orqali tanishishimiz mumkin. Matbuot ijtimoiy ongning o‘tkir va ta’sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta’sirini ko‘rsatib kelgan, u hammavaqt jamoatchilik fikrini shakllantirgan. Davriy nashrlar, shuningdek, omma ongiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g‘oyaviy omil hisoblanadi. Matbuot jamiyat hayotini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, ma’daniy yo‘nalishlarda yoritib kelgan. XX asr 60-70-yillarida jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-siyosiy, adabiy hayotni aks ettirishda davriy nashrlarning o‘rni yuksak bo‘lgan. Mavjud davriy nashrlar o‘sha paytdagi madaniy-ijtimoiy hayotga ko‘zgu tutgan. Mazkur davrda “Sharq yulduzi”, “O‘zbek tili va adabiyoti” “Guliston” jurnallari, “Yosh leninchi” gazetalari qizg‘in faoliyat olib borgan. Ularda shoir va yozuvchilarning she’rlari, tanqidchilarning maqolari berib borilgan. Chunonchi, “Sharq yulduzi” sahifalarini varaqlar ekansiz, shu paytda adabiy jarayon qizg‘in kechganligini, shoir va yozuvchilarning ijodiga jiddiy yondashilganligini kuzatamiz. O‘zbek poeziyasi, prozasi, dramaturgiyasi 1965-yilda qanday rivojlanganligi haqida “Sharq yulduzi” jurnalida chop etilgan hisobot orqali ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. 1965-yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining V syezdida Komil Yashin o‘zbek poeziyasidagi yuksalishlarni tahlil qilar ekan, shunday fikrlarni aytib o‘tadi: “O‘zbek she’riyatidagi lirik qahramonning aql darajasi keyingi yillarda ancha ortdi. Bugungi she’rlarimizning lirik qahramoni hayotdagi muhim masalalar haqida, inson taqdiri va uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida ko‘proq o‘ylaydigan bo‘lib qoldi. U turmushga chuqurroq qaraydigan, kengroq mulohaza yuritadigan bo‘ldi. Bu narsani biz keksa avlodaga mansub shoirlarning she’rlaridagina emas, balki S.Zunnunova va J.Jabborov, D.Fayziy va T.Hamidning, H.Sharipov va A.Abdurazzoqning, E.Vohidov

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

va X.Salohning, Gulchehra va Sayyorning ijodida ham, adabiyotga yaqinda kirib kelgan B.Boyqobilov, G.Nurillayeva, Y.Shomansur, To‘lqin, O.Hakimov, T.Saydaliyev, A.Isroilov, O.Xojiyeva, A.Oripov singari shoirlarning she’rlarida ham ko‘ramiz”

Jurnalning turli sonlarida tanqidchilarning chiqishlari, ijodkorlarning asarlariga munosabati berib boriladi. “Mahorat masalalari” rukni ostida Matyoqub Qo‘shjonov, S.Mamajonov, U.Normatov kabi tanqidchilarning qarashlari yoritilib boriladiki, davr adabiy muhiti haqidagi sara fikrlarni ularning maqolalaridan topishimiz mumkin. Masalan, Umarali Normatov “Poeziya – qalb qo‘shig‘i” maqolasida “Adabiyot rivoji va kamolotini poemasiz tasavvur etish qiyin. Poema – katta fikrlar, kuchli tuyg‘ular mahsuli. So‘nggi yillarda poeziyamiz yangi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. She’riyatning tematik va g‘oyaviy diapazoni kengaydi, she’riyat dargohiga bir guruh iste’dodli yoshlar kirib keldi, she’r yaratish mahorati, she’r san’ati sezilarli darajada ko‘tarildi. Bu ta’kid poemachilikka ham taalluqli”[1.169], – deya so‘nggi yillarda bir necha poemalar e’lon qilinganligi poeziyamizni yana qisqa tanaffusdan keyin jonlantirib yuborganligini e’tirof etadi. E’lon qilingan poemalarning mualliflari asosan yoshlar – Erkin Vohidov, Husniddin Sharipov, Xayriddin Saloh, Sayyor, Yusuf Shomansur ekanligini, ular she’riyatda ancha bo‘y cho‘zib qolganligini, “Yoshiga va tajribasiga qarab ularni kattalar qatoriga qo‘shib qo‘yaverish, ulardan ko‘proq va jiddiroq narsalar talab etaverish mumkin” ligini ta’kidlaydi. Erkin Vohidovning “Nido”, “Yangroq hayot”, Husniddin Sharipov “Izma-iz”, “Bog‘ ko‘cha bolalari”, Yusuf Shomansurning “Qonsiz fojia” poemalarining yutuq va kamchiliklari ochib beriladi. Erkin Vohidovning “Nido” dostonida “qahramon qalbi qaridan otilib chiqqan o‘y va tuyg‘ularning butun bir gammasini berishga muvaffaq bo‘lgan”ligi, shoirning hayqiriq va murojaatlari g‘oyat samimiyligi, publitsistik ruh kuchliligi uning yutuqlari sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, Sulton Jo‘ra haqida yozilgan Xayriddin Salohning “Yangroq hayot”ida ijod psixologiyasi yaxshi ochib berilganligini alohida e’tirof etadi. Bahs-munozalarga sabab bo‘lgan Yusuf Shomansurning “Qonsiz fojiasi”da yoshlarning hayotdagi o‘rni, burchi, mas’uliyati masalasi ko‘tarilganligi uning muvaffaqiyati ekanligi aytiladi: “Poemada qahramon hayotidagi muhim nuqta – qahramon vijdonining uyg‘onishi, vijdon tug‘yoni momenti tasvir etiladi. Qahramon qalbini tasvirlashda shoir avvalgi poemasi – “Baxt”ga qaraganda ancha ilgari ketgan. Bu poemada endi soxta intrigalarni, sun’iy kechinmalarni emas, hayotiy va jiddiy kechinmalarni tasvirlashga harakat qiladi, qahramon qalbiga chuqurroq kirib boradi”[2. 174].

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Poemalarning yutuqlari bilan birga ayrim kamchiliklari yuzasidan ham mulohazalar yuritiladi. Tanqidchi “Nido” da jang epizodi urush haqidagi ko‘pgina asarlarda tasvirlangan lavhalarga o‘xshab qolganligini, “Yangroq hayot” da epik asos bilan lirik kechinma o‘rtasida ajralish borligini, “Qonsiz fojia”da “qalb intrigasining yechimini juda oson va shablon tarzda hal etgan”ligini kamchiliklar sifatida sanab, bunga sabab qilib esa ulardagi mahoratning yetishmasligida deb biladi. Bu maqola vositasida davr adabiy muhiti, bu davrdagi o‘zbek poeziyasi manzaralari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

S.Mamajonov “1965-yilning she’riy parvozi” maqolasida ham bu davr ruhi, adabiy-madaniy hayoti haqida gapira turib, katta avlod vakillari izidan kelayotgan yoshlar ijodi o‘ziga xos tarzda kechayotganligini aytib o‘tadi, davr lirikasining fazilatlarini quyidagilarda ko‘radi: ”Shoirlarımız asosiy diqqatni voqelikni shunchaki sharhlashga emas, balki undan olgan taassurotlarini, hayot ta’siridan paydo bo‘lgan tuyg‘ularini, his-hayajonlarini, turmush haqidagi o‘z qarash va mushohadalarini ifodalashga harakat qilmoqdalar. Bu hol lirikamizdagi subyektivlikning, ya’ni obyektiv dunyo shoirning bevosita kechinmasi orqali aks etishini chuqurlashtirishga olib kelmoqda”[3. 202]. Uning e’tiroficha, Zulfiya “O‘ylarim” kitobidagi she’rlarida ayol baxti, inson sadoqati va bardoshi to‘g‘risida o‘ylaydi, M.Boboyev “Yangi varaqlar” turkumiga kirgan she’rlarida insonning tug‘ilishi, uning baxti to‘g‘risida qayg‘uradi. Saida Zunnova qalb dialektikasini ochish, Jumaniyoz Jabborov badiiy tahlil qilish yo‘lidan boradi. Sulton Akbariy she’rlarini esa usti dag‘al bo‘lsa-da, yoqimli poetik tafakkurga ega deya ta’riflar ekan, “Yusuf Shomansurning she’rlari tashqi g‘alizligi va yumori bilan Sulton Akbariy she’rlariga o‘xshabroq ketadi. U “Chorak asr yoshim bor”, “Derlar:erkaklarning qattiq diydasi” she’rlarida fikrni hissiy tuyg‘ular vositasida o‘tkazadi”, - deydi. U shuningdek, “O‘zbek sovet poeziyasining kechagi, bugungi va ertangi kuni” maqolasida davr poeziyasi bugungi holati haqida gapiradi: “To‘g‘ri, 50-yillar poeziyasida balandparvoz, tantanavor she’rlar – voqelikning ichki mohiyatini ifodalashga noqobil va insonning ruhiy kechinmasiga befarq qarovchi she’rlar ham anchagina yozildi. Biroq poeziyaning katta avlodi yonida ilhom bilan ijod qilayotgan A.Muxtor, M.Boboyev, H.G‘ulom, Shukrullo, T.To‘la, R.Bobojon, E.Rahim, S.Akbariy, Po‘lat Mo‘min izlanishlari va poeziyamiz “oqsoqollari”ning yaxshi asarlari bu davr poeziyasining yetakchi fazilatini belgiladi. Keyingi o‘n-o‘n besh yil ichida poeziyamiz mazmuman, g‘oyaviy jihatdan, shaklan va badiiy darajasi tomondan sezilarli rivojlandi. Uning dargohiga S.Zunnunova, J.Jabborov, E.Vohidov, Z.Obidov, A.Abdurazzoq, H.Sharipov, A.Oripov, Omon Matjon, G.Nurillayeva, H.Xudoyberdiyeva, R.Parfi, O.Hojiyeva,

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

J.Kamol, M.Ali, Y.Shomansur kabi o‘z shogirdlik qiyofasiga ega yangi kuchlar kelib qo‘shildi”[4. 40].

Bu davr she’riyatining yana bir o‘ziga xos xususiyati shoirlar tomonidan qo‘shiqlarning yaratilishidir. Turob To‘la, Po‘lat Mo‘min, Zohidjon Obidov, Anvar Isroilovning qo‘shiqlari nafaqat adabiyotimiz xazinasidan joy olgan, balki xalqimizning dil-diliga jo bo‘lgan. Ularda tuyg‘ular tarannumi, ohanglar uyg‘unligi mujassam. Bu paytga kelib asta-sekinlik bilan shoirlarimiz uzundan uzun she‘rlar yozishdan voz kechishni boshlashdi. Hajman kichik, falsafasi ulkan bo‘lgan shakllarga murojaat kuchaydi. Erkin Vohidovning sakkizliklari, Po‘lat Mo‘minning oltiliklari, Tolib Yo‘ldosh, Nazarmat, Shoislom Shomuhamedov, Yusuf Shomansur to‘rtliklari, Barot Boyqobilov sonetlarida ana shu xususiyat yaqqol bo‘y ko‘rsatadi.

Laziz Qayumov bu davrda prozada roman janrining, poeziyada esa poemaning rivojlanganligini qayd etib o‘tadi. Asqad Muxtor, Ibrohim Rahim, Hamid G‘ulom, Shuhrat, Mirmuhsin, Mirzakalon Ismoilov, Said Ahmad, Primqul Qodirov, Odil Yoqubov, Sunnatilla Anorboyevning romanlari, Oybek, Mirmuhsin, Sulton Akbariy, Shukrullo, Jumaniyoz Jabborov, Husniddin Sharipov, Erkin Vohidov, Yusuf Shomansur, Sayyor, Xayriddin Salohlarning poemalarini adabiyotimizning jiddiy yutuqlari safiga kiritadi.

Ozod Sharafiddinov esa davr adabiy muhitida yoshlarning o‘rni juda yuqoriligini aytadi: “Adabiyotimizga kirib kelgan yoshlar haqida juda yuqori fikrdaman. Avvalo, shuni aytish kerakki, adabiyotimiz tarixida bu qadar yoshlar hozirgidek dadil, ko‘p sonli saflar bilan kirib kelmagan. Erkin Vohidov: “Oltmishinchi yillar she’riyatimiz uchun ham, nasriy adabiyotimiz uchun ham juda sermahsul yillar bo‘ldi. Ilgari o‘zbek romanlarini sanasa, barmoqlar soni ko‘plik qilar edi. Hozir ularni o‘z vaqtida o‘qib ulgurish qiyin bo‘lib qoldi”[5. 203] , – deya “Ufq”, “Ota”, “Oltin zanglamas”, “Qora ko‘zlar”, “Farg‘ona tong otguncha”, “Er boshiga ish tushsa”, “O‘tmishdan ertaklar”ni prozaik asarlarning eng saralari safiga kiritsa, 60-yillar poeziyasini gavdalantirgan kitoblar deya Asqad Muxtorning miniatyuralar kitobini, Saida Zunnunovanning to‘plamini, Abdulla Oripovning “Mitti yulduz”ini sanab o‘tadi. O‘z sozi va ovozigacha ega bo‘lgan Ma‘ruf Jalilov, Gulchehra Nurillayeva, Malika Mirzayeva, Erkin Samandarov, Rauf Parfi singari yoshlar “she’riyatimizning arsenali”ni tashkil etishini faxr bilan ta’kidlaydi.

1969-yilning 25-mart – 1-aprel kunlari Moskvada o‘tkazilgan Yosh yozuvchilarning V Butunittifoq seminar kengashida ham bir guruh o‘zbek yoshlari – Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Yusuf Shomansur, O‘tkir Hoshimov, Norboy Xudoyberganov, Anvar Eshonov, Shukur Xolmirzayev, Rahim Farhodiylar

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qatnashganligi, ularning asarlari tahlil qilinganligi mazkur davr adabiy muhitida ularning o‘ziga xos ovozi va o‘rni bo‘lganligidan darak beradi. Bu xususda: “Bir qancha yosh shoirlar, adiblar qatori O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasi, Shukur Xolmirzayev, Anvar Eshonov hikoyalari, Yusuf Shomansur, Jamol Kamol she‘rlari, shuningdek, rus tilida qalam tebratayotgan Rahim Farhodiy asarlari tahlil etildi. Abdulla Oripovning she‘rlarida o‘zbek xalqining quvonch-shodligi, qahramonligi aks etganini qayd etib, Qaysin Quliyev, David Qug‘iltinovlar yosh shoirning iste’dodi noyob asarlar yaratishga qodir ekanligini gapirdilar”[6. 200], – deydi Norboy Xudoyberganov.

“Sharq yulduzi” jurnalining 1969-yilgi 11-sonida e‘lon qilingan S.Mamajonovning ‘Lirikamizga bir nazar’[7. 229] maqolasida katta avlod vakillari bilan yoshlar she‘riyatining farqli jihatlari, yutuqlariga ko‘zgu tutiladi. Tanqidchi: “Oqsoqollar uzoq yillarning ruhi bilan hayotga qarashga va o‘zlari kabi uzoq, murakkab hayot yo‘lini bosib o‘tgan tengqurlarining tuyg‘ularini, fikrlarini ifodalashga ko‘proq urg‘u berishganidek, yoshlar ham o‘z tengqurlari dunyosini ochishga e‘tibor beradilar”, - deya ikki avlod vakillari she‘riyatining tafovutli tomonlarini ko‘rsatadi. Oqsoqollardan Mirtemir, Zulfiya she‘rlari, yoshlar ijodidan esa Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov, Yusuf Shomansur, G.Jo‘rayeva, G.Nurillayeva, Erkin Vohidov, Shoislom Shomuhamedov, Xayriddin Salohlar she‘rlarining o‘ziga xosliklari tahlilga tortilgan. Xayriddin Salohning “Na‘matak”ka kirgan she‘rida ijodiy ko‘tarinkilik yaqqol sezilganligini aytib, “U yurt jamolini chizishigina orzu qilmas, balki odamlardagi ona yurtga bo‘lgan muhabbatni ardoqlashni, ayniqsa, ularda go‘zallikni his etish tuyg‘usini o‘stirishni, o‘zining odam va olam to‘g‘risidagi qarashlari, kechinmalarini tabiat ko‘zgusi orqali aks etishini o‘ylar edi”, – desa, Yusuf Shomansurning “Qalam va umr” kitobiga kirgan talaygina she‘rlari, ayniqsa, hajviyalari va dostonlari shoirning qalami tobora o‘tkirlashib borayotganligidan dalolat beradi”, – deydi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “Sharq yulduzi” sahifalarida davr adabiy muhitiga, adabiyotimiz poydevori bo‘lgan yetuk shoir-yozivchilar ijodiga, shuningdek, o‘ktam ovozi bilan kirib kelayotgan yosh avlod vakillari ijodiga ham munosib baho berilgan, ularning ijodidagi yutuq va kamchiliklar tanqid ostiga olingan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U. Poema – qalb qo‘shig‘i. //Sharq yulduzi, 1965. № 11. – 240 b
2. Normatov U. Poema – qalb qo‘shig‘i. //Sharq yulduzi, 1965, №11. – B 174.
3. Mamajonov S. 1965-yilning she‘riy parvozi.//Sharq yulduzi, 1966-yil. № 7. – 240 b

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Mamajonov S. O‘zbek sovet poeziyasining kechagi, bugungi va ertangi kuni. //O‘zbek tili va adabiyoti, 1972. № 6. – 40 bet.
5. Vohidov E. Ulkan yakun, zo‘r sinov//Sharq yulduzi, 1966- yil. № 11. –240 b
6. Xudoyberganov N. Jangovarlik va mas’uliyat// Sharq yulduzi. 1969-yil. №7. – 240 b.
7. Mamajonov S. Lirikamizga bir nazar. //Sharq yulduzi. 1969-yil. №11 –240 b